

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

# Tong Yulduzi

2013-yil 10-iyun  
N:23 (66928)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

## NAFOSAT VA GO'ZALLIK RAMZI

O'tgan hafta poytaxti-mizdagi Badiiy gimnastika bo'yicha olimpiya zaxiralari respublika bolalar va o'smirlar ixtisoslashgan sport maktabida badiiy gimnastika bo'yicha Osiyo chempionati va «Happy Caravan» xalqaro turniri bo'lib o'tdi.



Davomi 7-betda

## TABIAT – CHEKMASIN AZIYAT



«OBUNA – 2013» DAVOM ETMOQDA!

Qadrli o'quvchilar!  
«Tong yulduzi» gazetasiga ikkinchi yarim yillik uchun obuna barcha aloqa bo'limlarida davom etmoqda.  
Nashr ko'rsatkichi – 198.

«Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanlovi yakunlandi.

2-bet



# BOLALARGA YAXSHI FILMLAR KERAK

*Muqaddas kitoblarda: «Farzand insonga avaylab-asrash, ilmi, odobli, axloqli, vatanparvar va mehnatkash qilib tarbiyalash uchun beriladi», deyilgan. Ajdodlarimiz qadimdan amal qilib kelgan bu hayot haqiqati hozirgi kunda ham ota-onalarimiz, ustoz-murabbiylarimiz, mahalla ahli, qo'yingchi, jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan sanaladi.*

Farzand tarbiyasi o'ta nozik masala. Unda bolalar uchun yaratilgan filmlarni, multfilmni, ular o'qiyotgan kitoblarni, hattoki o'ynaydigan o'yinchoq'-'u qo'g'irchoqlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Chunki aynan mana shu omillar bola tarbiyasida, uning kamolotida muhim o'rin tutadi. Oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratishni o'rgatuvchi vosita hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, yaxshi «tarbiyachi» vazifasini o'taydi. Ular bolalar uchun shunchaki vaqt o'tkazish vositasi, ovunchoq, ermak emas, balki milliy ong va tarbiyaning shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Kuni kecha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida bolalar uchun animatsion filmlar yaratuvchi ijodkorlar bilan bolalar adiblari o'rtasida bo'lib o'tgan uchrashuv aynan ana shu dolzarb mavzuga bag'ishlandi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Muhammad Ali, «O'zbekkino» Milliy agentligi rahbari Jahongir Qosimov ishtirokida o'tgan davra suhbatida juda qiziqarli, bahs va munozaralarga boy tarzda kechdi.

Bugungi kunda Yurtboshimiz tomonidan ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor bizni yanada ruhlantirishi, ilhomlantirishi lozim, – dedi O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali davrani ochar ekan. – Shuningdek, bu e'tibor biz ijod ahli, ayniqsa, siz bolalar ijodkorlari zimmasiga yanada kuchliroq mas'uliyat yuklaydi. Chunki Siz yosh avlodni tarbiyalaysiz.

So'ngra, Jahongir Qosimov so'z olib, yurtimiz aholisining 60 foizdan ziyodini tashkil qiluvchi bolalar va o'smirlar uchun ijod qilish, ular ko'ngliga yo'l topa olish o'ta mas'uliyatli vazifa ekanligini ta'kidladi:



– Kichkintoylar uchun yaxshi multfilm yaratish uchun, eng avvalo, yaxshi so'z, matn kerak bo'ladi. Zero, yaxshi asar kinoning, multfilmning yutug'ini ta'minlaydi. Biz hamkorlikda ishlasak, ko'zlangan maqsadimizga erishamiz...

– Darhaqiqat, yurtimizdagi 9 millionga yaqin o'g'il-qiz bizdan milliy ruhdagi filmlar, multfilm yaratishni kutishyapti, – deya uning fikrini to'ldirdi O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev. – Kinochilar bilan bolalar ijodkorlari bir-birlarini tanlashsin, ijodiy hamkorlik qilishsin, hamfikrlikda filmlar yaratishsin...

Taniqli bolalar shoiri Miraziz A'zam, buyuk ajdodlarimiz hayotiga oid filmlar, multfilm yaratish orqali bolajonlar qalbida tariximiz, o'tmishimiz, ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish lozim, deya fikr bildirdi, O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon bolalar filmlari, multfilm qahramonlarini bola tilidan «gapirtirish»ga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladi.

Shuningdek,

«O'zbekkino» Milliy agentligi muharriri G'afur Shermuhammad, «O'zbekfilm» ochiq aksiyadorlik jamiyati kinostudiyasi multbirlashma Bosh muharriri Zulfiya Yo'ldosheva, badiiy rahbari Mazzur Mahmudov, «O'qituvchi»

nashriyat-matbaa ijodiy uyi yetakchi mutaxassisi Bahrom Akbarov singari o'z kasbining fidoyisi bo'lgan ijodkorlar so'z olib, bugungi kunda yaratilayotgan multfilmlarning yutuq va kamchiliklari, farzandlarimiz tarbiyasi, kamolotida tutgan o'rni xususida fikr yuritishdi.

Bugungi kunda kichkintoylar katta qiziqish bilan tomosha qilayotgan «Masha va Maymoq» multfilm xususida ham bahs va munozaralar bo'lib o'tdi.

Bir so'z bilan aytganda, ijodiy muloqotlar debochasi deya e'tirof etilgan mazkur davra suhbatini tashkillashtirishdan ko'zlangan maqsadga erishildi. Bolalar ijodkorlari orasidan tayinlangan adabiy maslahatchilar bolalar uchun yaratilayotgan har bir film, multfilmning mazmuni bilan yaqindan tanishib, uning tili, mazmuni, psixologiyasi bolalar ruhiyatiga mos kelishi yoki aksincha ekanligini aniqlab beradigan bo'ldilar.

Shuningdek, bolalar shoir va yozuvchilari, kino ijodkorlari orasida ijodiy raqobatni kuchaytirish maqsadida bolalar filmlari, multfilm tanlovi har yili o'tkazishga va uni 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kunida yakunlashga kelishib olindi.

Kichkintoylarga saboq beruvchi ma'rifiy multfilm yaratish borasida takliflar o'rtaga tashlandi.

Bunday ijodiy muloqotlar samarasi o'laroq bolalarning yoshiga, ruhiyatiga mos bo'lgan, ularga estetik zavq, ko'tarinki kayfiyat ulashish bilan birga tarbiyaviy ahamiyatga ega multfilmlarimiz soni yanada ortadi, degan umiddamiz.

Feruza JALILOVA



## TABIAT – CHEKMASIN AZIYAT

*Bolajonlar, xabaringiz bor, o'tgan hafta joylarda 5-iyun – Butunjahon atrof-muhitni himoya qilish kuniga bag'ishlangan ko'plab tadbirlar o'tkazildi.*

Yurtimiz tabiati, atrof-muhiti, atmosfera, yer va suv resurslarini muhofaza qilish, ekologik holatini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda o'quvchilar faolligini oshirish, tabiatga oqilona munosabatni shakllantirish, ekologik madaniyatni yuksaltirish, yosh avlodning murg'ak qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasi, O'zbekiston Davlat tabiat muzeyi, O'zbekiston ekologik harakati, «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida o'tkazilgan «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanlovining yakuniga

bag'ishlangan tadbir ham aynan shu kuni o'tkazildi.

Rango-rang sharlar, gullar bilan bayramona bezatilgan O'zbekiston ekologik harakati binosi hovlisidagi «Ekobog'» tanlov g'oliblari, ularning otonalari, vazirlik va idoralar vakillari, «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilari bilan gavjum.

Havoning o'zgarishi ham, shamol turib, chang-to'zon ko'tirilishi, hatto yomg'ir tomchilashi ham yig'ilganlar kayfiyatini buza olmadi. Bayram bayramdek bo'ldi. Taniqli estrada xonandalari ijrosidagi kuy va qo'shiqlar yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat ulashdi. Qator xalqaro tashkilotlar, xorij davlatlari elchixonalari, vazirlik va idoralar

vakillaridan sovg'a-salomlar olish, qutlovlar eshitish g'oliblar uchun ham «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilari uchun unutilmas voqea bo'ldi. Shuning barobarida zimmalariga yuklatilgan mas'uliyat zalvorini ham his qildilar. O'g'il-qizlarning yozgan insholari mazmunidan, gap-so'zlaridan shuni angladikki, ular chin ma'noda tabiatga posbon bo'lib, bugungi kunda uning muhofazasi nechog'li muhim ekanligini o'zlari yashab turgan shahar yoki tumanlari, mahallalari, maktablaridagi tengdoshlariga ham uqtirishayotgan ekan.

Jonajon diyorimizning fusunkor, betakror, saxiy, mo'jizaviy tabiati aslo zavol ko'rmasin! Uning yosh posbonlari safi yanada kengayaversin.

Tanlovning insholar bo'yicha bosh sovrini g'olibi Shermuhammad



Dehqonovni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi spikeri o'rinosari, O'zbekiston ekologik harakati Markaziy Kengashi ijroiya qo'mitasi raisi Boriy Alixonov chin dildan muborakbod etib, kelgusi hayotida muvaffaqiyatlar tiladi.

Tanlov g'oliblarini tabriklaymiz!

Muslim YUSUPOV.  
Zuhra NISHONOVA olgan surat



## QALBIMIZ QUYOSHI

Bir maktabdan  
qo'sh maktub

Kitobni ma'rifat quyoshi deb bejiz aytishmaydi. U o'zining zarrin nurlari bilan inson qalbini yoritadi, dunyoqarashini boyitadi. Olam quyoshsiz zulmatda qolganidek, odam ko'ngli ham kitob ziyosi bilan charog'ondir. Chunki insonlar kitob o'qib, ilm olib, dunyoni angelaydilar.

Kitobga bo'lgan mehr menda bolalik chog'larimdayoq uyg'ongan edi. Turli ertaklar, she'riy kitoblarni qiziqib o'qirdim. Keyinchalik o'zim ham she'r va hikoyalar yoza boshladim. Yaqinda «Bahor nafasi» nomli ilk kitobcham chop etildi.

Maktabimizda tez-tez ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, adabiy kechalar o'tkazib turiladi. Kuni kecha ta'lim maskanimizda biz o'quvchilarni yangi nashr etilgan kitoblar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida «Kitob bayrami» o'tkazildi.

Maktabimiz rahbari Zulfiya opa Sarimsoqova yig'ilganlarni ushbu bayram bilan qutlab, kitob insonning eng yaqin do'sti ekanini ta'kidladilar. O'quvchilarning «Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashamiz» shiori ostidagi chiqishlari tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.

Bayram so'ngida qalbimizda yuksak ma'naviyatimiz bo'lsa, hech qanday kuch bizni yenga olmasligiga amin bo'ldik.

Dilshodaxon MAMADALIYEVA



## QISHLOG'IM – FAXRIM

Men O'zbekiston tumanining «Go'sht» qishlog'ida istiqomat qilaman. Sizlarga bu nom biroz g'alati tuyulishi mumkin. Qishlog'imiz tarixi, uning nomi haqida rivoyatlar juda ko'p.

Aytishlaricha, qadimda qishloqda qoramollar boqiladigan, go'sht mahsulotlari saqlanadigan joy bo'lgan ekan. Shu bois, qishlog'imiz «Go'sht qishloq» deb nomlangan. Tug'ilib o'sgan maskanimiz nomi qadimiy bo'lsa ham, o'zi zamon talablari darajasida, shahardan sira qolishmaydi. Yangi bunyod etilgan kollej va maktab qishlog'imiz ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. Sportsevar bolalar uchun futbol, voleybol, gandbol kabi ko'plab to'garaklar faoliyat yuritmog'da.

Qizlar uchun «Mohir qo'llar» chevarlik maskani ish olib bormog'da. Qishlog'imizda ko'plab tadbirlar, bayramlar, hasharlar o'tkaziladi. Odamlari bir-biriga mehribon, ahil va inoq. Keksalar, yolg'iz yashovchi insonlarni ziyorat qilish bizlarga odat.

Men ham kelajakda yurt koriga yaraydigan, uning rivojiga oz bo'lsa-da, hissa qo'shadigan inson bo'lib yetishishni istayman.

Nargizaxon TURG'UNOVA

Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 16-umumta'lim maktabi o'quvchilari

*Tun. Borliq sukunatga cho'mgan. Barcha shirin uyquda. Go'yo hayot to'xtab qolgandek. Lekin soatning bir maromda chiqillashi tun osudaligini buzadi. U: «Hayot o'tib bormog'da, umr zarvaraglarini ma'no-mazmun bilan bezatish ham, besamar o'tkazib yuborish ham sening tanloving» demog'chi bo'layotgandek, go'yo.*

## VAQTINGIZ – BAXTINGIZ

Chindan ham umrimiz shamoldek tez o'tib bormog'da. Shu qisqagina umri behuda sarflayotganlarga achinaman. Internet klublarda yoki telefoniga tikilib vaqtini o'tkazayotganlar o'z kelajagini o'ylashmami? Axir insonga umr bir marotaba beriladi-ku! Menga qolsa, bo'sh vaqtimni kitob o'qish bilan o'tkazardim. Mutolaa har qanday o'yindan ham zavqliroqdir. Kitob o'qishni sevimli mashg'ulotingizga aylantirilsangiz, bilim olishni maqsad qilib qo'ysangiz, kelajakda yetuk, komil inson bo'lishni orzulasangiz, hayotingizning mazmundor bo'lishi ana shunda. Hayotini ma'no-mazmunga to'ldira olgan inson o'zini baxtli his qiladi. Buning uchun bilim va aql kifoya. Ular esa kitoblarda yashiringan.

Shunday ekan, aziz tengdoshlar, vaqtingizni zoye ketkazmang. Zero, vaqtingiz bu Sizning baxtingizdir.

Yulduz MO'MINOVA,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi akademik litseyning 2-bosqich o'quvchisi



BALAND PARVOZ TILAYMIZ!

Ayni kunlarda bitiruvchi akajon-u opajonlarimiz tinimsiz harakatdalar. Yakuniy imtihonlarga hozirlik ancha puxta bo'lyapti chog'i, qo'llarida kitob, o'tilgan mavzularini takrorlash bilan bandlar. «So'nggi qo'ng'iroq» tadbirida maktabimiz direktori Shohida opa Ilyosova bitiruvchilarni mustaqil hayotga kuzatar ekan, ularning erishgan yutuqlaridan xursandligini aytdi. Farzandlariday bo'lib qolgan bu o'quvchilarning maktabni tark etayotganlaridan biroz ranjib, ko'zlariga yosh oldi. Ularning yangi hayotdagi yangi orzu-umidlari ushalishiga tilakdosh bo'ldi. Biz ham maktabimiz «qaldirg'och»lariga baland parvozlarni tilaymiz.

Javohir RAVSHANOV,  
Jizzax viloyati, Mirzacho'l tumani

## CHEVAR QIZ MAFTUNA

Maftuna Xolliqova Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 23-umumta'lim maktabining 3-sinfida o'qiydi. Bu a'lochi qiz odobi, orastaligi bilan sinfdoshlaridan ajralib turadi.

– Bo'sh vaqtlarimda badiiy kitob o'qishni, rasm chizishni, tikish-bichishni juda yoqtiraman. Ayni ta'til kunlarida onajonimdan kashta tikish sirlarini o'rganayman. Kelajakdagi orzum o'qituvchi bo'lish, – deydi Maftuna ishonch bilan.

Sofiya NAZAROVA

## YOSH RASSOMLAR BOGI

Maktabimiz koolisida yosh rassomlar bog'i bor. Iqtidorli o'quvchilarimizning ustozlari Akmal Nig'matjonov va rassom Ulid Ahmadjonov boshchiligida bog'da ishlagan asarlari barchani hayratga solmog'da.

Ayni ta'til kunlarida go'zal tovus gavdalanitirilgan haykalchaga rang berayotgan Ziyoda To'xtamurodova 5-sinf o'quvchisi. U yaqinda maktabimizda «Obod turmush yili» munosabati bilan o'tkazilgan tanlovda ham g'olib bo'lgan edi.



6-sinf o'quvchisi Erkin Boboyorov ham «Yosh rassomlar» to'garagi a'zosi. Bizning faxrimiz bo'lgan maktabimizga kelib, yosh rassomlarning ishlarini ko'ring-u bahosini o'zingiz bering!

G'ayrat ASHUROV,  
Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi 322-maktabning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari



## YOSH IXTIROCHILAR BELLASHUVI

*O'quvchilarning ixtirochilik qobiliyatini rivojlantirish, ular orasida ijodkorlikni targ'ib qilish, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida «Iqtidorli yoshlar – Vatan ravnaqi yo'lida» shiori ostida «Yilning eng yaxshi ixtirochisi» respublika ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.*

Poytaxtning Chilonzor tumanidagi

8-musiq va san'at maktabi bayramona bezatilgan. Bu yerga Qoraqalpog'iston Respublikasi, yurtimizning barcha viloyatlari, shuningdek, poytaxtdagi «Barkamol avlod» bolalar markazlari o'quvchilari o'zlari yasab kelgan ixtirolari bilan tashrif buyurdilar.

Ko'rik-tanlovda «Boshlang'ich texnik modellashtirish va konstruksiyalash» turkumiga kiruvchi «Yosh konstruktor va ixtirochi» to'garaklari (avtomodel, aviamodel, raketamodel, kemasozlik, robototexnika va elektron o'yinchoqlar)da yaratilgan maket va modellar bo'yicha ixtirolar namoyish etildi.

Ko'rgazmaga qo'yilgan ishlarni ko'rib, ko'zimiz quvnadi, qalbimiz faxr va iftixor tuyg'usiga limmo-lim to'ldi.

Fursatdan foydalanib, g'olib bo'lgan ishtirokchilarni suhbatga chorladik:

**Otabek QURBONNIYOZOV** – Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 4-aniq fanlarga ixtisoslashgan maxsus maktabning 9-sinf o'quvchisi:

– Tumanimizdagi «Barkamol avlod» ijodiyot markazi qoshidagi «Radiotexnika» to'garagida ustozim Sherzod Sodiqov boshchiligidagi yasab kelgan «Virtual soat»im 1-o'ringa loyiq topildi. Ta'tilda ham izlanishlarimni davom ettirib, bundan-da mukammal ixtirolar qilmoqchiman.

**Uyg'un SAMANDAROV** – Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 9-«D» sinf o'quvchisi:

– Uch yildan buyon ustozim Odil aka Bozorov rahbarlik qilayotgan «Avtomodel» to'garagida shug'ullanaman. Tanlovga olib kelgan «Bosim orqali elektr toki ishlab chiqaradigan harbiy texnika»m 2-o'ringa munosib ko'rildi. Kelajakda texnika bo'yicha mutaxassis bo'lmoqchiman.

**Ilyos QUVVATOV** – Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidagi 12-maktabning 8-sinf o'quvchisi:

– Ustozim Salomat opa Kubayeva rahbarligida «Universal sug'orish agregati – 1»ni yasab keldim. U 3-o'ringa loyiq topildi. Kelasi yili mazkur tanlovda yana qatnashib, 1-o'rinni olishga harakat qilaman.

G'oliblar tashkiliy qo'mita tomonidan maxsus Diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**Dilorom HOTAMOVA,**  
muallif olgan suratlar

«Barkamol avlod» bolalar markazlari faoliyatidan

## IQTIDORLARNI JAMLAGAN MASKAN

*Rishtonlik tengdoshingiz Shahnoza ta'til kunlari sevimli mashg'uloti bo'lmish kulolchilikning sir-asrorlarini yanada puxtaroq o'rganishni maqsad qilgan.*

U tuman «Barkamol avlod» bolalar markazidagi «Kulolchilik» to'garagining faol a'zosi bo'lib, sopol idishlarga turli naqshlar chizadi. Uyda esa dadasi Shuhratjon Yo'ldoshevning ustaxonasida mashg'ulotlarni davom ettiradi.

– Bobom ham qo'li gul kulol bo'lganlar. Shu bois, milliy hunarmandchiligimizga qiziqishim katta. Oilaviy ishlagan kulolchilik mahsulotlarimiz bilan nufuzli ko'rik-tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etyapmiz. O'zim esa yaqinda Qo'qon shahrida o'tkazilgan iqtidorli yoshlar va viloyat miqyosida bo'lib o'tgan yosh hunarmandlar ko'rgazmalarida qatnashib, ustozlar nazariga

tushganimdan mamnunman, – deydi u. Shahnoza kabi 900 dan ziyod o'quvchilar. Rishton tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazida faoliyat yuritayotgan qirqdan ortiq to'garaklarga qatnashishmoqda.

«To'qish» to'garagi a'zosi Guljahon Hamidova viloyat miqyosida o'tkazilgan «Orasta qizlar» ko'rik-tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Iskandar Qosimov, Sherali Maxsutaliyev, Baxtiyor Hasanov kabi iste'dodli o'quvchilar ham kelajak hayotlarida asqotadigan hunarlarni egallab, o'rganishlarini turli tanlovlarda sinovdan o'tkazishyapti.

**Abduvosit SIDDIQOV,**  
Farg'ona viloyati

**Tahririyatdan:** Aziz bolalar, Sizing ta'til kunlaringiz ham mazmunli, maroqli o'tyaptimi? Bu yilgi ta'tilda qaysi to'garakka a'zo bo'ldingiz? Shular haqida bizga yozib yuboring.

*Odatda kutubxonada tinchlik saqlanib, o'quvchilar mutolaa bilan mashg'ul bo'ladilar. Yaqinda Respublika bolalar kutubxonasida bu holning aksiga duch keldik. Kuy-qo'shiq, turli tomoshalar avjida.*

## NURXONADA BAYRAM

Bolalar bayrami munosabati bilan o'tkazilayotgan tadbirlar kutubxonada ham davom etib, xayriya konsertiga aylanib ketdi. Shiftgacha bo'y cho'zgan javonlar to'la, bir-biridan chiroyli va mazmunli kitoblarni ko'rib, kutubxonaga a'zo bo'lishga qaror qilgan bolajonlar endi yoz bo'yi zerikmaydigan bo'lishdi.

Tadбир avvalida kutubxona direktori Doniyor aka O'rolov bolajonlarni tabriklab, kutubxona har bir bolaga ziyo ulashishga tayyor ekanligini aytib o'tdilar. Bayram davomida Respublika yosh tomoshabinlar teatri aktyorlari ijrosidagi sahna ko'rinishi, O'zbek Davlat sirki

artistlarining tomoshalari barchaga shodlik ulashdi. Viktorina savollariga to'g'ri javob bergan Yakkasaroy tumanidagi 144-maktabning 4-sinf o'quvchisi Komila Solixova sovg'a tariqasida «Shum bola» asarini qo'lga kiritdi.

– Ta'tilda mazza qilib «Shum bola»ni o'qib, ustozim bergan vazifalarni bajaradigan bo'ldim, – dedi Komila mamnun bo'lib.

Ziyo maskanida bolalarga ulashilgan olam-olam quvonch bir umr ularning yodida qoladigan bo'ldi. Tadбир so'ngida bayram dasturxonini yozilib, kichik mehmonlarga izzat ko'rsatildi.

*O'z muxbirimiz*

## «KAMALAK» ATROFIDA

*21-27-may kunlari Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanining so'lim go'shasida joylashgan «Lochin» bolalar oromgohi respublikamizning turli viloyatlaridan kelgan «Kamalak» tashkilotining eng faol o'quvchi-yoshlarini o'z bag'riga oldi.*

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi bu tashkilotning navbatdagi XII anjumani ezgu maqsadlar bilan o'z ishini boshladi. Unda an'anaviy «Kamalak» bilimdonlari ko'rik-tanlovining Respublika bosqichi ham bo'lib o'tdi.

Anjumanni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad yil davomida tashkilot tomonidan amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilish va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish, sardorlarning bilim-konikmasini oshirish, ilg'or tajribalarini ommalashtirish va qo'llab-quvvatlash, maktablardagi boshlang'ich tashkilotlarning ish faoliyatini ko'rib chiqish, yurtimiz yoshlari o'rtasida mustahkam do'stlik aloqalarini o'rnatish orqali ularni ozod va obod Vatanimizning ravnaqi yo'lida birlashtirishdan iborat edi.

Anjumanda respublikamizning 194 ta tuman va shaharlaridan «Kamolot» va «Kamalak» sardorlari, hududiy «Kamalak» bolalar tashkiloti raislari, Harakat qoshidagi «Yetakchi» yoshlar o'quv markazi murabbiylari, «Kamalak»

bilimdonlari ko'rik-tanlovining hududiy bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan jamoalar ishtirok etishdi. Yoshlar 14 guruhga bo'linib, mashg'ulot, madaniy tadбир va ko'rik-tanlovlarda qatnashdilar. Yoshlarning bilim va malakalarini oshirish maqsadida «Huquqiy savodxonlik», «Ma'naviyat va ma'rifat», «Iqtidorli yoshlar», «Sport, salomatlik va ekologiya», «Mehrsaxovat», «Matbuot» kabi yo'nalishlarda 13 ta sessiya tashkil etildi. Shuningdek, «Obod turmush yili yosh rassom nigohida», «Eng namunali oromgoh senariysi», «Siz «Kamolot»ni bilasizmi?», «Eng yaxshi notiq», «Quvnoq marafon» kabi ko'rik-tanlov, estafeta va sport o'yinlari bolalarni bir davrda jamladi.

Hakamlar hay'ati jamoalarni ijodiy yondashuvi, intellektual salohiyati va ijro mahoratlariga ko'ra baholab bordi.

Anjumanning tantanalı yopilish marosimida faol yoshlarga, «Kamalak» tashkilotining Diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

**Sarvar FARMONOV**





Har bir inson baxtni turlicha tasavvur etadi. Menimcha, kishining ruhiy holatiga qarab xulosa chiqarish noo'rin. Kulib turgan odam baxtsiz, aksincha, yig'layotgani baxtli bo'lishi mumkin.

Men esa baxtni shunday tasavvur qilaman: har tong derazam oynasidan atrofga boqib, uzoqdan elas-elas ko'zga ko'rinayotgan tog'larni, bag'rida qushlar erkin parvoz qilayotgan osmonni, qayerlargadir shoshayotgan odamlarni ko'rsam, shunday tinch, osuda yurtda yashayotganimdan behad mamnun bo'laman. Shunda eng oliy baxt bu tinchlik ekanligini anglayman.

Litseydagi dugonalarimning o'z orzulariga yetishish yo'lidagi harakatlarini ko'rsam, baxt bu bizning orzularimiz, deyman.

Yaqinlarim va do'stlarimning iliq muomalasi, mehribonliklari yuragimga singadi. Baxt bu yuragimga yaqin insonlar ekanligini his qilaman.

O'qishga ketayotganimda, dadajonim meni duo qiladi. «Senga ishonaman,

seni yaxshi ko'raman, qizim», degan so'zlarini eshitganimda, menga bo'lgan ishonchdan faxrlanaman. Demak, baxt bu ishonch!

Qoramalarim ustozlarimga ma'qul bo'lsa, o'zimni baxtiyor sezaman. Baxt bu mening ilhomim.

Hayot yo'li silliq, ravon emas. Ba'zan uning o'nqir-cho'nqir, past-balandliklariga duch kelamiz. Hayotdagi muammolarni yechib, g'am-tashvishlarga bardosh bera olsam, men baxtliman. Baxt bu bardosh.

Yerning taftini sezib shaxdam qadam tashlasam, tabiat go'zalligidan ko'zim quvnasa, o'zimni sog'lom his qilsam, men baxtliman. Baxt bu sog'liq.

Zero, har bir inson baxtli bo'lishga haqli.

**Shodiyabegim SHAROFIY,**  
Jizzax davlat pedagogika instituti qoshidagi «Sayiljoy» akademik litsey o'quvchisi

# ABDUMALIK OLIM BO'LMOQCHI

Poyoniga yetgan o'qov yili ko'pchilik o'quvchilar qatori Yunusobod tumanidagi 9-maktabning 4-sinfini tamomlagan Abdumalik ABDURAHMONOV uchun ham juda omadli keldi. Barcha fanlardan baholari «5» bo'ldi.

Tuman miqyosida o'tkazilgan «Yosh iqtidor egalari – 2013» ko'rik-tanlovida matematika fanidan ishtirok etib, 1-o'rinni qo'lga kiritdi. «Yilning eng yaxshi, bilimdon o'quvchisi» ko'rik-tanlovining shahar bosqichida I darajali Diplom bilan taqdirlandi.

Uning bu yutuqlaridan yaqinlari, buvasi, ayniqsa, ustozi Sharofat opa SHARIPOVA behad quvondi. Ota-onalar, ustozlar, buva va buvijonlar uchun farzandlari, nabiralari, shogirdlari kamolini ko'rish, qo'lga kiritayotgan yutuqlari quvonchiga sherik bo'lishdan-da ortiqroq baxt bormi dunyoda?!

Tirishqoq, intiluvchan bu bolakay yozgi ta'tilni ham behuda o'tkazmaslik uchun ingliz tili, matematikadan saboq olishni davom ettiryapti. Iqtisodga oid kitoblar o'qish jon-u dili.

Bu yoshdagi o'g'il-qizlarimiz uchun ko'proq harakatli o'yinlar o'ynash, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanishning ahamiyati beqiyosligi barchamizga ayon. Abdumalik ham mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarida sportning suzish, kikkingsing turlari bilan muntazam shug'ullanib

kelmoqda. Futbolning-ku ashaddiy ishqibozi. Shaxmat-shahka o'ynashni buvasidan o'rgangan.

Mashg'ulotlardan qaytgan Abdumalikka oppoq, momiq quyonchalari sakrab-sakrab peshvoz chiqishadi. Ularni mehr bilan erkalab, sabzi, karam bilan siylaydi, so'ngra baliqlari yoniga oshiqadi. O'zi parvarishlayotgan rango-rang gullariga suv quysa, undan minnatdor bo'layotgandek chayqalib turishadi...

Darvoqe, uning yana bir fazilatini aytishni unutibmiz. Abdumalik o'ta tejankor bola. Ota-onasi, buva-yu buvilari bergan pullarni behudaga sarflamaydi.

Yoshiga nisbatan ancha vazmin, aqlli, mulohazali bolakaydan so'radik:

– Abdumalik, katta bo'lsang, kim bo'lmoqchisan?

– Buvajonimdek iqtisodchi olim bo'laman!..

Abdumalikning dadil javobidan behad quvondik. Undagi o'ziga bo'lgan ishonchni, ko'zlarida porlab turgan ishtiyoqni ko'rib, orzulari ijobatiga umid qildik.

**YULDUZKON.**  
ZUBAYDA olgan surat



## MO'JIZALAR DUNYOSI

Aziz bolajonlar, siz mo'jizalarni yaxshi ko'rasiz-a? Mo'jizalarga guvoh bo'lishni istasangiz, tabiatni seving, asrab-avaylang. Chunki tabiat mo'jizalarga kon. Uning zeb-u ziynatlari bo'lmish o'simliklar, qushlar, giyohlar, purviqor tog'lar-u toshqin daryolar bilan sirlashgan, tillashganlar, albatta, mo'jizalarni ko'ra oladi.

Tengdoshingiz Zarina ham tabiat shaydosi. U o'z hayrat-u quvonchlarini chizgilarida ifodalashga harakat qiladi. Salobatti tog'lar, dilni yayratuvchi gullar, chiroyli kapalaklar-u saxovatli quyosh Zarinaning zavqiga zavq qo'shadi. Ayniqsa, betakror tabiat bag'rida baxtiyor yashayotgan hamqishloqlari, buva va buvijonlarning cheksiz mehr-muhabbati, bolakaylarning shodon kulgilari uni yanada shodlantiradi.

Zarina Nurmatova Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 68-maktabning 6-sinfni muvaffaqiyatli yakunladi.

Mazkur bilim dargohida iqtidorli o'quvchilarga alohida e'tibor qaratiladi. Bunga birgina «Nafis san'at» to'garagi faoliyati misol bo'la oladi. To'garak rahbari, tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi, «Mehnat shuhrati» ordeni sohibi Muzaffar Begmatov intiluvchan o'quvchilardan bilganlarini ayamaydi.

Zarina nafaqat o'qishda, balki jamoat ishlarida ham dugonalariga o'mak. Yozgi ta'til kunlarida tinmay izlanishni niyat qilgan Zarinaga ijodiy bar-kamollik tilaymiz.

Quyida mo'jizalar dunyosiga oshno qalb chizgilarini e'tiboringizga havola qilamiz.



Shahlo RUSTAM qizi

## 9-iyun – Xalqaro do'stlik kuni

### CHEHRANGIZ OCHIQ BO'LSA...

Ta'til kunlari yangi do'stlar orttirishingiz uchun qulay imkoniyat. Kimdir oromgohda, yana kimdir buva va buvijonlarinikida dam olib, u yerdagi bolalar bilan do'stlashib oladi.

O'quvchiligimda yozgi ta'tilda Farg'onadagi qarindoshlarimiznikiga mehmonga borganim yodimda. Mahalladagi sodda, samimiy qizlar bilan dugona tutinib, «Kim tez olma yeydi?» (bog' to'la olma, o'rik edi-da), «O'rta tushar» o'ynagan chog'lirim, ularga Toshkent, uning xiyobonlari-yu metrosi haqida gapirganlarim, qizlarga qiziqib boshqoq terganim, bolaligimning unutilmas damlari bo'lib qolgan. Keyinchalik ular bilan maktub yozishdik. Agar fe'lingiz, dunyoqarashingiz to'g'ri kelsa, do'stlik masofa ham tanlamasa ekan. Ishonasizmi, o'sha Gavhar ismli dugonam besh yil o'tib, poytaxtga kelganida, meni so'roqladi va biz diydorlashdik.

Yillar o'tib, universitetdagi

kursdoshlarim bilan birga ishga joylashib, bir-birimiz bilan hamjihat bo'ldik. Ish joyimizda do'stlarga ko'zimiz tushsa, mehrimiz tovlanib, hamfikir, maslahatgo'y va suyanch bo'ldik. Do'stlashishning birinchi sharti barchani birdek hurmat qilish, barchaga mehr ulashish ekan. Agar ko'nglingiz, qo'lingiz, chehrangiz ochiq bo'lsa, o'z-o'zidan insonlar sizga talpinaverishadi. Bevafoqlik, ikkiyuzlamachilik, takabburlik esa do'stlikka umuman zid illatlardir.

Sizning do'stlaringiz ham talayginadir?! Do'stlik barchamizga, avvalo, o'zaro hurmat, mehr-muhabbatni o'rgatadi, ulashadi, nazarimda. Shunday ekan, bu tuyg'uni hamisha ardoqlab yashaylik!

**QIZLARKON**



Tursunboy ADASHBOYEV

# E'TIROF

Bog'cha yoshidagi

kichkintoylar uchun asarlar yozish o'ta mushkul ish ekanligi sir emas. Bu soha bo'yicha mening qirq yillik qadrdonim Habib Rahmatdan boshqa sadoqat bilan qalam tebratib kelayotgan ijodkor yo'q desam, o'zgalar meni aybsitmasa kerak. Sababi, tengdoshlarim va kamina asosan maktab yoshidagi o'g'il-qizlarimizga, o'smirlarga atab she'rlar yozamiz.



Bolalarning sevimli shoiri, «Yetti o'lchab, bir kes», «Gulxumorning gulbog'i», «To'r ko'ylak – zo'r ko'ylak», «Yig'loqi g'ozlar», «Orzularim egasi» kabi to'plamlar muallifi Vali Ahmadjon sermahsul ijodkorlardan biri. Shoirning quvnoq, samimiy she'rlari jamlangan «Ko'zmunchoq» nomli to'plami ham bolajonlarning kitob javonidan munosib o'rin olib, ta'til kunlariga mazmun, ma'no bag'ishlaydi, degan umiddamiz. Quyida shoirning yangi she'rlaridan namunalari o'qiydiz.

Farg'onalik qalamkash do'stimiz Vali Ahmadjonning «Tafakkur qanoti» nashriyotida yaqinda bosib chiqarilgan «Ko'zmunchoq» nomli kitobini o'qigach, xayriyat, Habib Rahmat yolg'iz emas ekan, degan xulosaga keldim. Odatda yaxlitlik, eng sara mashqlarni bitta muqovaga jamlab, kitobxonga taqdim etish to'la-to'kis tasavvurni paydo qiladi. Gaping indallosi, Valijonning bir talay shaparmak to'plamlari qo'limda bo'lishiga qaramay, vaqtli matbuotda o'z mulohazalarimni ro'yi-rost aytishga iymanardim...

Bundan o'ttiz yillar avval atoqli shoir va adib, qadrdon do'stim marhum Yo'ldosh Sulaymon meni Valijon bilan tanishtirgan edi. Shundan buyon uning ijodini matbuot orqali kuzatib boraman. Hamisha birday, kamtar, kamsuqum. U to'rt satrdan iborat she'rlarida kichkintoylarning fe'l-atvorini sodda va lo'nda ifodalaydi. Chunonchi, Olimjon ismli bolaning tilidan:

*Qo'lin artidi Olimjon,  
Oppoq sochiq qoraydi.  
– Sochiq namuncha kir, – deb  
Labin burib qaraydi.*

Yoki ipak qurti haqidagi to'rtligini olaylik:



*Ipak qurti alomat,  
Topayin deb halovat.  
Uy qurar eshigi yo'q,  
Uxlashga beshigi yo'q.*


Barchamizga ma'lum bo'lgan holat – laylak bir oyoqda turishidan ham o'ziga xos xulosa chiqaradi. Qisqasi, shoir do'stimizning yangi kitobidan o'rin olgan barcha she'rlarida shirintoylarning beg'ubor olami havas qilsa arzigulik tarzda yoritilgan. Mazkur to'planning chop etilishida unga so'zbohi yozgan, she'rlarni saylab-saralab chiqqan shoir



Abdurahmon Akbarning xizmati ham e'tirofga loyiq. Shoir Vali Ahmadjonning ismi-jismiga monand «Ko'zmunchoq» iga ko'z tegmasin.

## YOZ CHILLASI

Jimirlaydi dim havo,  
Oppoq nurga cho'milib.  
Go'yo olam shu palla,  
Borlar durga ko'milib.



Bolalarni yo'qlasang,  
Ko'rinar suv qo'ynida.  
Ko'k choy ichar bobolar,  
Dastro'moli bo'ynida.

Quyosh boqar bearmon,  
Zangor osmon toqida.  
Chorlab turar mevalar,  
Dov-daraxtlar shoxida.

Rahmat, kiydim necha yil  
Teshilmasang netarding?  
Pisand etmay sovuqni,  
Qishdan g'olib o'tarding.

Yamoqchining qarori:  
«Og'ir kasal, sog'aymas».  
Dam olaver omborda,  
Goh-goh ko'rib tursam, bas.

## KAYRLASHUV

Xafa bo'lma, botinkam  
«Xayr» degan so'zimga.  
Ko'chib o'tgan bo'y-basting,  
Xayolimga, ko'zimga.



## QO'SHCHINOR

Ikki chinor – ikki do'st,  
Juda yaqin ekilgan.  
Qomatlari osmonda,  
Bir-biriga egilgan.



Barglari ham aralash,  
To'kiladi pildirab.  
Yillar o'tar, yosh o'tar,  
Birgalashib g'ildirab.

Shox – qo'llari tutashgan,  
Tanholikni xohlamas.  
Ahillikka namuna,  
Jonli haykal har nafas.

Vali AHMADJON

# KITOBLARGA ATALGAN GULLAR

(Badia)

*Men hali maktabga chiqmagan paytlar. Harf o'rganish, ularni qo'shib o'qish qiyin tuyulardi. Qo'shni qizlarning dars tayyorlayotganini ko'rsam, qo'llarimni ayri qilib, ikki yildan keyin o'rganaman, derdim.*

Ammo... ko'rganlarim meni sirli dunyoga yetaklab kirdi. Dastalangan gullarga uzoq termilib qolardim. Mo'jiza meni o'z ortidan ergashtirib ketardi. Qishloqning har hovlisida o'sadigan oddiy gullar endi boshqacha edi. Butun mahalla, muallim, deb e'zozlaydigan ayol gullarni dastalab hovlisiga yo'l olardi. Bu hol deyarli tez-tez, gohida kunora, haftaga yetmay takrorlanardi. Atrofdagilar, kutubxonasiga qo'yadi, deganda kutubxona so'zini birinchi marta eshitgandim. Nima gapligini tushunmasdim, tushunolmasdim. Keyin ularni kuzatadigan bo'ldim. Dastalangan gullarni olib, hovlining bir chekkasidagi xonaga asta kirardi. Chiroqni yoqqani kichkinagina romli oynadan ko'zga tashlanardi. Ularning ichkarilaganini sezib, xonaga yaqinlashdim. Eshikning g'ichirlab ketishidan cho'chib sekingina mo'raladim-u... og'zim ochilib qoldi. Ishongim kelmasdi... Ka-atta xonaning to'rt devori tokcha qilingan, rang-barang kitoblarni liq to'la edi... Uzoq vaqt engashib qarab turganimdan boshim qiyshayib qolgan edi. Biznikidagi kitoblarni taxlasam, ikki qo'limning barmoqlaridan salgina ko'p chiqardi. Men endi tez-tez kuzatadigan bo'ldim.

Muallim javon yonidagi shisha, sopol

guldonlarni avaylab artib chiqardi. Suvini chelakdan almashtirardi-da, gullarni qator solib, maxsus joylarga qo'yardi. Ularga qarab uzoq vaqt tabassum qilib, xayol surardi. Meni ularning nimalar haqida o'ylayotgani qiziqtirardi: «Shu kitoblarni hammasini o'qiganmikan? Nimaga kitoblarni buncha yaxshi ko'rarkin? O'qiganlari hammasi esidamikin? Esida bo'lsa kerak. Men kichkina bo'lsam ham buvimning hamma ertaklarini eslab qolganman-ku... Yana kim bilsin?» Savollarimning oxirini topolmasdim... Xonani ichiga kirib ko'rishni orzu qilardim. Ammo muallim kichkina bolalarni bu xonaga deyarli kirgazmasdi. Mening esa bu yerga tez-tez kelayotganimni sezardi. Bir kuni boshimni silab, kitoblarni yaxshi ko'rsanmi, dedi. Men hali harflarni o'rganmaganman, ertak aytishni bilaman, dedim. Ular qo'limdan ushlab xonaga boshladi. Shunaqangi xursand bo'ldimki, sakragilarim keldi. Kitoblarning hammasini qo'lim bilan



ushlasam, deyman. Sanashni bilganimda edi, opamga o'xshab sanab tashlardim, deb o'yladim.

Muallim burchakdan bir talay jumallarni olib, menga tutqazdi. Ichidagi suratlar gapirayotganga o'xshardi, yozuvlariga esa tushunmasdim.

Shundan keyin harflarni o'rganishga kirishdim...

Muallim gul dastalab yurganida ortidan ergashib u xonaga tez-tez kiradigan bo'ldim. Har kirganimda qaysi kitobning qayerda turganini tushuntirardi. Keyin eslasam, ular nafaqat kitoblarni, kutubxonasining xaritasini yod bilarkan. Men muallim bilan o'rtog' bo'lib qolgandim. Guldonidan to'rt faslda ham gullar arimaydigan muallim keksayib qolgan bo'lsa-da, juda ko'p o'qir, bir chetdagi xontaxtada nimalarnidir yozaverardi.

– Gullarni nimaga kitoblarning yoniga qo'yasiz? – so'radim men.

– Dunyodagi hamma gullar kitoblarga atalgan, – kulib qo'ydi muallim. Men u so'zga tushunmadim. Bir kuni shahardan ko'p odamlar keldi. Mehmonlar muallimni judayam hurmat qilarkan. Keyin bilsam, qishlog'imiz muallimi katta olim ekan. Kelganlar esa ularning shogirdlari ekan.

Gullarning kitoblarga atalganini tushunganday bo'ldim...

Dilfuza SHOMALIKOVA



# NAFOSAT VA GO'ZALLIK RAMZI

(Boshi 1-beta)

Ushbu nufuzli musobaqalarda O'zbekistondan tashqari Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Singapur, Malayziya, Tailand, Hindiston, Mo'g'uliston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Isroil, Rossiya kabi davlatlardan kelgan sportchi qizlar ishtirok etdi.

Musobaqaning ochilish marosimida Osiyo gimnastika ittifoqi prezidenti Rahmon al-Shatriy so'zga chiqib, mamlakatimizda Prezidentimiz rahnamoligida sportga berilayotgan yuksak e'tibor natijasida sportchilarimizning xalqaro arenalarda qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlariga yuksak baho berdi.

Ma'lumki, avvallari yurtimizda ko'pchilik ot-onalar qizlarining sport bilan, xususan, badiiy gimnastika bilan shug'ullanishini ma'qul ko'rmasdi. Ayniqsa, qishloq joylarida yashovchi yurtdoshlarimizning bu boradagi tasavvurlari butkul o'zgacha edi.

Istiqloldan so'ng mamlakatimizda sportning qizlarga xos turlarini, ayniqsa, badiiy gimnastikani yanada ommalashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada, yurtdoshlarimizning bu boradagi tasavvurlari butkul o'zgarib, qizlarimiz orasidan ham qit'a va jahon chempionati sovrindorlari yetishib chiqa boshladi.



Quvonarlisi, bugun badiiy gimnastika yurtimiz qizlari orasida eng ommalashgan sport turiga aylandi.

Toshkent shahri mezbonlik qilgan Osiyo chempionatida qit'amizning eng kuchli gimnastikachilari, «Happy Caravan» xalqaro turnirida esa o'smir qizlar yakkalik va guruh bahslarida o'z mahoratlarini namoyish etishdi. Musobaqa sovrindorlari orasida yosh va umidli badiiy gimnastikachilari-mizning borligi quvonarli, albatta.

Xususan, Osiyo chempionati bahslarida O'zbekiston terma jamoasi qizlari jamoaviy bahslar bo'yicha oltin medalni qo'lga kiritib, yurtdoshlarimizga bir alam quvonch hadya etishdi. Murosasiz ruhda o'tgan bellashuvlar yakuniga ko'ra Jamila Rahmatova, Mayya Filippova, Maftuna Shamsiyeva va Valeriya Davidova halqa, to'p, bulava va tasmada bajarilgan kompozitsiyalar bo'yicha eng yuqori natijani qayd etdi.

– Bolaligimdan badiiy gimnastika bilan muntazam shug'ullanib kelaman. Iste'dodimning yuzaga chiqishida yaqinlarim, ustozlarim mehri, qolaversa, mamlakatimizda sportga qaratilayotgan e'tiborning o'rni beqiyos, – deydi



Jamila Rahmatova.

Shuningdek, guruh bahslarida qatnashgan Olga Kiryakova, Marta Rastoburova, Luiza G'aniyeva, Zarina Qurbonova, Darya Svechnikova va Yekaterina Buxenkodan iborat qizlarimiz bulava, to'p va tasmada bajarilgan mashqlari orqali bronza medalni qo'lga kiritishdi.

Biz badiiy gimnastikachilarimizga oldindagi musobaqalarda omad va zafarlar tilab qolamiz.

Sa'dullo TURSINOV

## SPORT – SALOMATLIK GAROVI

*Mamlakatimizda sportga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida farzandlarimiz sportning u yoki bu turi bilan muntazam shug'ullanish imkoniga egalar.*

Bugun bolalar va o'smirlarning bo'sh vaqtini maroqli va mazmunli o'tkazish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etishda sportning o'rni benihoya kattadir.

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi Bolalar sport maktabida tarbiyalanayotgan yoshlar hayotida ham sport muhim ahamiyatga ega. Birgina futbol sport turini olsak, hozir maktabda 10-15 yoshgacha bo'lgan yosh charm to'p ustalari

murabbiy Sardor Ganjiyevdan raqibga bosim o'tkazish, to'p bilan to'g'ri harakatlanish kabilarni o'zlashtirmoqdalar.

– Yildan yilga yoshlarimizning sportga qiziqishi ortib borayotganidan quvonaman. Bu ularni har jihatdan sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi, – deydi S.Ganjiyev.

Mazkur maktabning yosh charm to'p ustalari turli musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib kelishayotir. Ayniqsa, Husan

Xoldorov, Fazliddin Abdumajidov, Abdulhamid Abduq'aforov kabi umidli futbolchilardan ustozlarining umidi katta.

Ular kelajakda Mirjalol Qosimov, Odil Ahmedov, Server Jeparov kabi mohir futbolchilar bo'lib kamol topsinlar, deya niyat qilamiz.

Orzigul  
FAYZIYEVA,  
O'zMU talabasi



*Farg'ona shahridagi «Neftchi» professional futbol klubi tasarrufidagi bolalar va o'smirlar futbol maktabida kapital qurilish-ta'mirlash ishlari yakunlandi.*

## FARG'ONADA SHUNDAY MAKTAB BOR

Futbol maydoniga xalqaro talablarga javob beradigan zamonaviy sun'iy qoplama yotqizildi. Yosh futbolchilar uchun yuvinish, yechinish xonalari, qo'shimcha futbol maydonchalari va trenajor zali barpo etilib, 600 tomoshabinga mo'ljallangan o'rindiqlar o'rnatildi. Ayni paytda maktabda 700 nafardan ziyod o'quvchi futbol sirlarini o'rganmoqda.


Ushbu maktab mutasaddilari xayrli ishga qo'l o'rtdi. «Neftchi» PFK xodimlari va futbolchilari Farg'ona shahridagi «Mehribonlik uyi» va yordamchi internatda bo'lib, bolalarga turli sport anjomlari sovg'a qildi.

Shoh MUHAMMAD





Bolalar salomatligini yanada mustahkamlash, yangi o'quv yilida bilimlarni mukammal egallash uchun ta'limni sarmazmun o'tkazish juda muhim. Davlatimiz tomonidan bolajonlarni yozgi mavsumda dam oldirish va sog'lomlashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilayotgani ham bejiz emas. Ko'sh, bu borada qanday ishlar amalga oshirilyapti? Bu yilgi ta'tilda bolajonlarni qanday yangiliklar kutmoqda. Shu kabi savollar bilan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi matbuot kotibi Muhabbat opa O'R. MONBEKOVAg murojaat qildik:



# OROMGOHLAR CHORLAYDI SIZNI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-martda qabul qilingan «Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori mazkur yo'nalishdagi ishlarni sifat va mazmun jihatidan yanada yuqori bosqichga olib chiqishda muhim dasturilamal bo'lmoqda. O'tgan yili 35 ta oromgoh rekonstruksiya qilinib, kapital ta'mirlangan bo'lsa, bu yil qirqa yaqin bolalar yozgi dam olish maskanlari tubdan rekonstruksiya qilindi.

Bu mavsum ham an'anaviy tarzda 1-iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kunidan boshlandi. Joriy yilda mamlakatimizda mingta yozgi bolalar oromgohi faoliyat ko'rsata boshladi. Ularning 210 tasi stasionar, 740 tasi kunduzgi, 50 tasi esa mehnat va dam oldirish oromgohlaridir. Mavsum davomida 270 ming 350 nafardan ziyod o'g'il-qiz dam olib, sog'lomlashtiriladi. Bu ko'rsatkich avvalgi yillardagiga nisbatan 10 ming nafarga ko'pdir. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidan to'rt yarim ming nafar bola Toshkent shahri va Toshkent viloyati, shuningdek, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarining so'lim maskanlariga yo'l oladi. Shu bilan birga, kam ta'minlangan oilalarning 600 nafardan ortiq farzandlari, imkoniyati cheklangan bolalar bepul dam olishlari ko'zda tutilgan.

Bolalarni yozgi oromgohlarda sog'lomlashtirishda «Mehribonlik uy»lari, maxsus maktab-internatlar tarbiyalanuvchilari, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlarini imkon qadar ko'proq qamrab olishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yilgi yozgi dam olish

mavsumining o'ziga xos jihatlaridan yana biri ijtimoiy moslashuv oromgohlari faoliyatining yo'lga qo'yilishidir.

Bir qator hamkor tashkilotlar bilan birgalikda yozgi dam olish oromgohlari, maktablar qoshidagi mavsumiy dam olish maskanlari uchun «Yoz - 2013» deb nomlangan maxsus ish rejasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, yozgi dam olish oromgohlarida o'tkaziladigan har bir kun davomida Vatanimiz mustaqilligining 22 yilligiga bag'ishlangan ma'rifiy anjumanlar, olimlar, ma'naviyat targ'ibotchilari, yozuvchi va shoirlar, sport, madaniyat va san'at namoyandalari ishtirokida uchrashuvlar, jonli muloqotlar, davra suhbatlari o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Oromgohlarda o'tkaziluvchi ijodiy festivallar, rasmlar ko'rik-tanlovi, kitobxonlik bayramlari, adabiyot haftaliklari o'g'il-qizlarning ma'naviyatini yuksaltirishi bilan birga turli fanlar bo'yicha bilimlarini boyitishga xizmat qiladi. Shuning barobarida xorijiy tillarni o'rgatish, badiiy ijodiyot, kompyuter savodxonligi, sport turlari bo'yicha ham to'garaklar ish olib borishi rejalashtirilgan. Sport musobaqalari, oromgohlararo chempionatlar bolalarni yanada chiniqtirib, ularda qat'iyat, iroda, xayrixohlik, tengdoshlari yutug'idan quvonish kabi fazilatlarini shakllantirsa, ona-tabiatning maftunkor go'shalariga, keng dalalar, purviqor tog'lar, qir-adirlarga, jo'shgin soylar bo'yiga sayohatlar yosh avlod qalbida Vatanimizdan faxrlanish, diyorimizning har qarich tuprog'ini,



tabiatning tengsiz ne'matlarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, oromgohlardagi Axborot-resurs markazlari, kutubxonalarni bolalar uchun mo'ljallangan gazeta va jurnallar, adabiyotlar bilan ta'minlash, kitob zaxirasini boyitish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa yoshlarni milliy hayot tarzimiz, tafakkurimiz, mentalitetimizga zid bo'lgan g'oyalar, «ommaviy madaniyat»ning ta'siridan ishonchli himoyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Darvoqe, bunday ezgu ishlar zamirida yurtimizda yosh avlod kamoloti va istiqboli yo'lida ko'rsatilayotgan cheksiz mehr-e'tibor yotadi. Bunday g'amxo'rliklarga farzandlarimiz o'z bilim va iqtidori, izlanish va yutuqlari bilan munosib javob berishiga shubhamiz yo'q.

Feruza SOYIBJON qizi yozib oldi, muallif olgan suratlar

**TEZ AYTISH**

**TOPISHMOQ**

Beshariq shahri,  
Besh ariq sharhi.

Katta yo'lda,  
Polvon yotar.  
Usti ravon -  
Karvon o'tar.  
Tagidan-chi,  
Ilon o'tar.

Ko'chada kecha o'tkazdik,  
Ko'chirib ko'chat o'tqazdik.

Anvar MIRZAZODA,  
Zangiota tumani

**CHANQOV BOSDI TAOM**

*parazanda atag!*

Kerakli masalliqlar:  
1 litr qatiq,  
0.5 litr qaynagan suv,  
2 osh qoshiqda guruch, 2 dona tuxum, 1 bog' kashnich, rayhon barglari va tuz kerak bo'ladi.

Tayyorlanishi:  
2 ta tuxumni chaqib iylang. Unga yuvilgan guruchni aralashtrib, qozonga soling, ustidan qatiq quyib, past olovda qo'lni uzmay aralashtrib turing. Guruch pishishiga yaqin qaynab sovutilgan suv, ta'bg'a ko'ra tuz solib, aralashtrishda davom eting. Mayda to'g'ralgan ko'katlarni solib, 5 daqiqadan so'ng tagini o'chiring va popqog'ini yopib qo'ying. Sovugach, muzlatgichga qo'ying. Bu taom issiq kunda tanangizga xush yoqadi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

**8**

**Tong Yulduzi**

**Muassislar:**  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOC'LOM AVLOD UCHUN» Inkuubatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

**Bosh muharrir**  
Feruza JALILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Quroqboy ERGASHEV,  
Sobitxon TURGUNOV

**Navbatchi muharrir**  
Dilorom HOTAMOVA  
**Rassom**  
Feruz MATYOQUBOV  
**Dizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV  
**Musahhah**  
Nargiza ABDULLAYEVA

**Manzilibiz:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy,  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi. Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 82 975  
Buyurtma N: J 7327